

CEFR MEZONLARI ASOSIDA YARATILGAN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING ARAB TILINI O‘RGATISHDAGI O‘ZIGA XOSLIGI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653410>

Zafar Norboyev

Samarqand davlat chet tillar instituti

Yaqin sharq tillari kafedrasida o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

Tel: +998902827700

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitishda xususan arab tilini o‘qitish va til o‘rganuvchilariga o‘rgatishda CEFR mezonlari asosida yaratilgan o‘quv materiallarining o‘rni va ahamiyati bugungi tilshunoslikda juda muhimligi va dolzarb masalalardan ekanligi haqida fikr yuritiladi. O‘quv materiallarida berilayotgan ma‘lumotlarning CEFR talablari asosida shakllanishining rivojlanib borishi to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltirilgan. Xorijiy ilmiy tadqiqot, universitet va markazlar tomonidan taqdim etilayotgan o‘quv materiallarining xilma-xilligi, ularning tarkibiy tuzulishi va ularda berilgan ma‘lumotlarning o‘ziga xosligi tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta‘lim muassasalarida filologik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarga arab tilini o‘rgatishdagi ba‘zi muommolar va ularning yechimlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: IHT, Al-Arabiyattu bayna Yadayk, Lug‘atuna al-Fusxa, At-Takallum: A Comprehensive Modern Arabic Course, Al-Minxaju Al-Alamiyyu, Miftaxu Al-Arabiyya, CEFR, كِتَابُ الطَّالِبِ, كِتَابُ التَّدْرِيبَاتِ, مُفْرَدَاتٌ, حَوَازٌ, اِسْتِمَاعٌ, تَعْبِيرَاتٌ, مُحَادَثَةٌ va اِسْتِمَاعٌ وَفَهْمٌ, تَحَدُّثٌ, كِتَابَةٌ, قِرَاءَةٌ, قَوَاعِدٌ

ABSTRACT

This article discusses the role and importance of CEFR-based teaching materials in the teaching of foreign languages, especially in the teaching of Arabic and language learners, which is very important and relevant in today's linguistics. The training materials also provide information on the development of the formation of the information provided in accordance with the requirements of CEFR. The diversity of educational materials provided by foreign research, universities and centers, their structure and the specificity of the information provided in them are analyzed. Also, some problems in the teaching of Arabic language to students

studying philology in higher education institutions of Uzbekistan and their solutions were discussed.

Keywords: IHT, Al-Arabiyyatu bayna Yadayk, Lug`atuna al-Fusxa, At-Takallum: A Comprehensive Modern Arabic Course, Al-Minxaju Al-Alamiyyu, Miftaxu Al-Arabiyya, CEFR, كِتَابُ الطَّالِبِ, كِتَابُ التَّنْذِيرِيَّاتِ, مُفْرَدَاتٌ, حَوَازٌ, اِسْتِمَاعٌ, تَعْبِيرَاتٌ, مُحَادَثَةٌ va فَهْمٌ, تَحَدُّثٌ, كِتَابَةٌ, قِرَاءَةٌ, قَوَاعِدٌ

АННОТАЦИЯ

В данной статье обсуждается роль и значение учебных материалов на основе CEFR в обучении иностранным языкам, особенно в обучении арабскому языку и изучающих язык, что очень важно и актуально в современной лингвистике. В учебных материалах также представлена информация по развитию формирования предоставленной информации в соответствии с требованиями CEFR. Анализируется разнообразие учебных материалов, предоставляемых зарубежными исследованиями, университетами и центрами, их структура и специфика представленной в них информации. Также были обсуждены некоторые проблемы в обучении арабскому языку студентов-филологов в высших учебных заведениях Узбекистана и пути их решения.

Ключевые слова: ИHT, Аль-Арабиятту байна Ядайк, Лугатуна аль-Фусса, Ат-Такаллум: полный курс современного арабского языка, Аль-Минхаджу аль-Аламию, Мифтаксу аль-Арабийя, CEFR, كِتَابُ الطَّالِبِ, كِتَابُ التَّنْذِيرِيَّاتِ, مُفْرَدَاتٌ, حَوَازٌ, اِسْتِمَاعٌ, تَعْبِيرَاتٌ, مُحَادَثَةٌ va فَهْمٌ, تَحَدُّثٌ, كِتَابَةٌ, قِرَاءَةٌ, قَوَاعِدٌ

KIRISH

Bugungi kunda dunyoda xorijiy tillarni o‘rganish va ularda erkin so‘zlasha olishga bo‘lgan qiziqish juda yuqoridir. Tarixdan nazar soladigan bo‘lsak ham har bir davrda xorijiy tillarda yozilgan manbalarni boshqa xorijiy tillarga tarjima qilish, davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish va boshqa xalqlarning madaniyati, san‘ati, iqtisodi, ijtimoiy hayoti va ilm-fandagi yutuqlarini o‘rganish uchun ham xorijiy tillarni biluvchi vas hu tillarda erkin so‘zlasha oladigan shaxslarga talab sezilgan. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlanib borayotgan asrda dunyoda shu kungacha bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni internet orqali jahon tillaridan birida olishi mumkin.

Bizga ma‘lumki arab tili BMTning rasmiy tillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda barcha mintaqalarda ushbu tilda so‘zlashuvchilarni uchratishimiz mumkin. Shuningdek, arab tilini o‘rganish va uni o‘rgatish tizimida dunyo bo‘yicha samarali

ishlar olib bormoqda. Bu ishlarga asosan Islom hamkorlik tashkiloti (IHT)ning ISESCO – Islom ta`lim, fan va madaniyat tashkiloti boshchilik qilib, u arab tilini butun dunyoda o`qitish, o`rgatish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va muommalarni bartaraf etish bo`yicha amaliy ishlar olib bormoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

CEFR mezonlari asosida yaratilgan yangi o`quv materiallari asosida arab tilini o`rgatish borasida ko`plab ilmiy tadqiqot ishlari qilingan. Shu ilmiy tadqiqot ishlari asosida yaratilgan yangi o`quv materiallaridan bugungi kunda arab tilini o`rganish tizimlarida faol foydalanilib kelinmoqda. Abdurahmon bin Ibrohim Al-Favzan, Muxtor Al-Toxir Husayn, Muhammad Abduxoliq Muhammad Fadllarning “Al-Arabiyyatu bayna Yadayk”ning 1-2-3-kitoblarining A va B qismlari 2014, Samia Luisning “Lug`atuna al-Fusxa: Zamonaviy arab tili kursi”ning 6 ta qismi 2009, Sabir Al-Mashrufiy, Suad Al-Xavaliy, Abu Uvays Mahmudlarning “At-Takallum: A Comprehensive Modern Arabic Course”ning A1, A2, B1 va B2 2019, Suvayfiy Fatxiyning “Al-Minxaju Al-Alamiyyu”ning A1, A2, B1 va B2 2020 va Ahmad Al-Ruhban, Raviya Al-Muhanniy, Mu`tasim Hamadlarning “Miftaxu Al-Arabiyya”ning A0, A1, A2, B1 va B2 kitoblari ilmiy ishimizni yozishda asosiy tahliliy adabiyotlar bo`ldi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishimizda asosan kommunikativ metoddan foydalandik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Arab tilini xorijiy til sifatida o`rgatish uzoq davrlar mobaynida an`anaviy metodlar changalida qoldi. XX asrning 70-yillarida Yevropada xorijiy tillarni o`rgatishda kommunikativ yondashuvga asoslangan yangi tizim taklif qilindi. XX asrning 80-90-yillarida xorijiy tillar va zamonaviy xorijiy til o`qituvchilari xorijiy tillarni o`rgatish va o`qitish bilan bevosita bog`liq bo`lgan yangi fanlarning paydo bo`lishi va tadqiqot natijalari tufayli tubdan o`zgarishlarni boshidan kechirdi. Amaliy tilshunoslik, psixolingvistika va sotsiolingvistika kabi fanlar shular jumlasidandir. Butun dunyo ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan yuqoridagi yangi fanlar asosida arab tili nazariyasi, tadqiqoti va amaliyoti bo`yicha qizg`in va jadal ilmiy ishlar olib borildi va yangi o`quv adabiyotlari yaratildi. Til o`rganuvchilari arab tilini o`rgatish va o`qitish sohasida qilinayotgan so`nggi yutuqlar va yangiliklar bilan har doim uzliksiz xabardor bo`lib borishi kerak va bu tilni yanada yaxshiroq o`rganishiga yangi imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu ilmiy ishimizning asosiy maqsadi ham so`nggi yillarda xorijiy tillarni o`rgatish va o`qitish sohalarida yangi paydo bo`lgan kommunikativ yondashuv deb nomlanuvchi yondashuv asosida yaratilgan adabiyotlarni tahlil qilish va o`ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir. Til o`qitishda yoki o`rgatishda Kempbell (1980), Ingram (1980), Makki (1970), Rulet

(1975), Spolskiy (1980), Stern (1983) va Strevens (1976, 1977) kabi mashhur tilshunoslar o‘zlarining yangi model va sxemalarini taklif qilishdi.

Butun Yevropa Kengashi tomonidan CEFR ma’lumotnomasi ishlab chiqilgandan so‘ng, xorijiy tillarni kommunikativ metodlar yordamida o‘rgatish va o‘qitish tilga juda ko‘p yangicha yondashuvlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. CEFR til o‘rgatish tizimida shaffoflik va taqqoslanuvchanlikni ta’minlashni maqsad qilganligi dastlab Yevropada o‘z natijasini berdi keyinchalik bu jarayon yevropa tillaridan tashqarida ham o‘z natijasini bera boshladi. So‘nggi paytlarda arab tilini xorijiy tili sifatida o‘qitish (TAFL) sohasida CEFRni arab tili ta’limiga integratsiya qilish uchun talab tobora ortib bormoqda. Ammo, samarali va tizimli usullar yoki ko‘rsatmalar almashish bo‘yicha ko‘p ishlar amalga oshirilmadi. O‘z yondashuvida CEFR uchta asosiy mezonni o‘rnatdi. Bular keng qamrovlilik, shaffoflik va izchilik ya’ni til dasturining turli komponentlari aniq va qulay tarzda tasvirlangan til bilimlari va ko‘nikmalarining inklyuziv doirasini aniqlashga qaratilgan. Keyinchalik bu taklif Yevropa Ittifoqi yig‘ilishida muhokama etildi va CEFR loyihasi taqdim etildi. Shundan so‘ng qisqa muddatda bu loyiha o‘zini oqladi va 40 yaqin tillarga tarjima qilinib o‘sha tillarga joriy etilishi taklif qilindi.

Shu bilan CEFR mezonlari va talablari arab tili o‘quv materiallariga kirib kela boshladi. CEFR talablarida tilni darajalarga bo‘lib o‘rgatish ilgari surilgan. A1 dan C2 gacha bo‘lgan darajalarda til o‘rganuvchilari tilni to‘rt ko‘nikmalardagi ketma-ketlik bilan o‘rgansa o‘z maqsadiga erishishi tizimlashtirilgan. O‘zbekistonda ham xorijiy tillarni o‘rgatishda CEFR talablarini joriy qilish bo‘yicha bir qancha hukumat darajasida ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimi yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli va “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarorlarida xorijiy tillarni o‘rgatish tizimini isloh qilish, zamonaviy ommabop metodikalardan foydalangan holda xorijiy tillarni o‘qitish, xorijiy tillardagi zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlash va barcha davlat oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xorijiy til o‘qituvchilari kamida C1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatlarga ega bo‘lish rejalari va talablari qo‘yilgan. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun kommunikativ yondashuv uslubiyatida CEFR talablari asosida yaratilgan o‘quv materiallariga zaruriyat seziladi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishimizdan ko‘zlangan asosiy maqsadimiz ham CEFR talablari asosida

zamonaviy o‘quv materiallarini yaratish texnologiyalarini ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Arab tilini o‘qitish va o‘rgatish bo‘yicha qilinayotgan tadqiqotlarning aksariyatida o‘quv materiallarini ishlab chiqish, ularni to‘g‘ri tanlash, o‘qitish strategiyalarini, faoliyatlarini va baholash usullarini tanlashda CEFRdan foydalanish muhim ekanligi alohida ta‘kidlanmoqda. CEFRni amalga oshirishda dastlab Abdurahmon bin Ibrohim Al-Favzan, Muxtor Al-Toxir Husayn, Muhammad Abduxoliq Muhammad Fadl, Samia Luis, Sabir Al-Mashrufiy, Suad Al-Xavaliy, Abu Uvays Mahmud, Suvayfiy Fatxiy, Ahmad Al-Ruhban, Raviya Al-Muhanniy, Mu‘tasim Hamad va boshqalar tilni o‘rgatishda ma‘lum darajalar bo‘lish kerakligini alohida ta‘kidlashadilar. Ularning fikriga ko‘ra quyidagi darajalar nazarda tutiladi:

1. Boshlang‘ich daraja
2. O‘rta daraja
3. Yuqori daraja

Boshlang‘ich darajani A0, A1 va A2 bosqichlarga bo‘lishadi. Bu darajada til o‘rganuvchi tanishish, qaysi davlat va millat vakili ekanligini bilishi, oila va uning a‘zolari, vaqtni va hafta kunlarini bilishi, vazifasi, kim bo‘lib ishlashi va uning ishi bo‘yicha, maktab, institut va ulardagi o‘qish, transport yo‘nalishlari bo‘yicha, yashash joyi haqida, savdo-sotiq bo‘yicha, taomlanish, inson tana a‘zolari, insonning bir kunlik hayotidagi voqea va hodisalar, sevimli mashg‘ulotlar, savdo-sotiq, do‘stlik, ish izlash va tarixiy joylar kabi mavzularga oid taxminan 1000 dan ziyod leksikani bilishi va ushbu leksikalar ishtirokida qisqa dialoglarni tushunishi, o‘zi sodda jumlar tuza olishi va sodda jumladan iborat qisqa insholar yoza olish talabi qo‘yiladi.

O‘rta daraja B1 va B2 bosqichga bo‘linadi. Bu darajada til o‘rganuvchi aeroportda, mehmonxonada, yashash tartib-qoidalari, shifoxona, shifokor huzurida, bozorda va dokonda xarid qilish, ishga kirishda suhbat, intervyu, sayohat qilish, esda qolarli hodisalar, milliy bayramlar, shahar va qishloq hayoti o‘rtasidagi farq, zararli odatlar, olimlar va mutafakkirlar, telefon va ijtimoiy tarmoq vositalari, oilaviy muommolar, uylanish, adabiyot namunalari, hayotiy tajribalar, xalqaro muommolar, shaxsiy muommolar, mahalliy va xalqaro tashkilotlar, muqaddas qadamjoylar, xalqaro muommolar va koronavirus kabi mavzularga oid 3000 dan ziyod leksikani bilishi va ushbu mavzulardagi suhbatlarni tushina olishi va ushbu suhbatlar o‘zining mustaqil fikrini bera olishi kerak. Shuningdek, yuqoridagi mavzularga o‘xshash mavzularda insho yoza olishi kerak.

Yuqori daraja C1 va C2 bosqichlariga bo‘linadi. Bu daraja til o‘rganishdagi eng yuqori daraja hisoblanadi. Bu darajada til o‘rganuvchilar har qanday mavzudagi suhbatlarni bemalol tushuna oladi. Bu darajada suhbatda ishlatiladigan nozik so‘z o‘yinlarining ma‘nolarini ham ilg‘ay oladilar. Shuningdek, bu darajada til o‘rganuvchi har qanday murakkab mavzularda ham bemalol suhbatga kirisha oladigan bo‘lishi kerak. Bu darajada har qanday murakkab mavzuda murakkab insho yoza olishi kerak. Qisqa qilib aytganda bu darajada til o‘rganuvchi o‘rganayotgan xorijiy tilini huddi o‘sha tilda so‘zlovchilar kabi tilni bilishi kerak.

Hozirgi kunda mamlakatimizda arab tilini CEFR mezonlari asosida yaratilgan o‘quv materiallaridan foydalangan holda olib borish o‘z samarasini bermoqda. Shu kunga qadar arab tili faqat grammatik mavzular asosida o‘rgatilgan. Ular grammatikani o‘rganish davomida faqat tarjima qilish bilan chegaralangan. Shuning uchun ham til o‘rganuvchilari ushbu tilde muloqot qilish davomida eshitish, yozish va gapirish ko‘nikmalarida katta qiyinchiliklarga uchragan. Ona tilisi arab tili bo‘lmaganlar uchun arab tilini o‘rgatish va o‘rganish bo‘yicha bir qancha xorijiy darsliklar chop etilib kelinmoqda. Darsliklarga e‘tibor bersak ulardagi xilma-xillikni ko‘rishimiz mumkin. Masalan: Sabir Al-Mashrufiy, Suad Al-Xavaliy, Abu Uvays Mahmudlarning “At-Takallum: A Comprehensive Modern Arabic Course” kitobi uchta daraja uchun A, B va C darajalari uchun mo‘ljallangan. Har bir darajadagi kitoblardagi qismga bo‘linadi. Birinchisi كِتَابُ الطَّالِبِ (talaba kitobi) va ikkinchisi كِتَابُ التَّدْرِيبَاتِ (mashqlar kitobi) deb nomlanadi. Har ikkala qismdagi kitoblarda dastlab مُفْرَدَاتٌ (yangi so‘zlar) keltiriladi. So‘ngra yangi so‘zlarni mustahkamlash uchun mashqlar beriladi. Shundan so‘ng جَوَارٌ (dialog) beriladi. Dialogni mustahkamlash uchun berilgan mashqlar orqali dialogda berilgan mavzuni mustahkamlash mumkin. Yuqorida berilgan yangi so‘zlar va dialog arab tili darajalaridagi اِسْتِمَاعٌ ko‘nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. قَوَاعِدٌ va تَعْبِيرَاتٌ qismlari orqali til o‘rganuvchi كِرَاءَةٌ ko‘nikmasini rivojlantirish mumkin. Bu qismda dastlab o‘rganilayotgan mavzuga doir eng ko‘p qo‘llaniladigan iboralar keltiriladi va shu iboralar ishtirok etgan gaplar keltiriladi. Bu til o‘rganuvchining كِتَابَةٌ (yozish) va تَحَدُّثٌ (gapirish) ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Keyingi qism bu اِسْتِمَاعٌ و فَهْمٌ (tinglab tushunish) qismi bo‘lib, unda asosan eshitishni rivojlantiruvchi mashqlar beriladi. Eng oxirgi qism bu مُحَادَثَةٌ (so‘zlashish) qismi bo‘lib unda asosan sur‘atlarni tasvirlash yoki biron-bir mavzu bo‘yicha o‘z fikrini bildirishnitalab qiluvchi mashqlar tizimi berilgan. Yuqoridagi ketma-ketlik talaba kitobidagi bitta mavzu bo‘yicha beriladigan izchillik hisoblanadi. Ikkinchi kitob ya‘ni كِتَابُ التَّدْرِيبَاتِ bu kitobdagi ketma-ketlik ham huddi shunday ketadi faqat u yerda to‘rtta ko‘nikmani rivojlantiruvchi mashqlar

berilgan bo‘ladi. Bitta kitobda taxminan 20 ga yaqin mavzu berilgan bo‘ladi, har bir mavzu insonning kundalik hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan voqea-hodisalar hisoblanadi. Har bir mavzu bo‘yicha fikr yuritish juda yengil kechadi, sababi mavzu real hayotga bog‘liq bo‘lganligidir. Oxirida bir mavzu bo‘yicha tuzilgan testlar topshirig‘i orqali til o‘rganuvchining mavzuni qanday darajada o‘zlashtirganini baholash orqali bilish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So‘ngi yillarda O‘zbekistonda arab tilini o‘rganishga bo‘lgan talab juda yuqoridir. Til o‘rganuvchilariga arab tilini xorijiy til sifatida o‘rgatishda arab tili o‘qituvchilariga zamonaviy o‘quv materiallari kerak bo‘ladi. Agar o‘quv materiali CEFR mezonlari asosida tuzilgan bo‘lsa maqsadga muvofiqdir. Chunki, CEFR talablari asosida yaratilgan adabiyotlarda izchillik, shaffoflik va uslubiyat juda puxta ishlab chiqilgan. O‘zbekistonda arab tili xorijiy til sifatida o‘rgatish juda qadimga borib taqalsada hozirgi kunga qadar biron-bir CEFR mezonlari asosida adabiyot mavjud emas. Arab tilida zamonaviy o‘quv materiallarini yaratish va ular asosida arab tilini xorijiy til sifatida o‘qitish zaruriyati yildan-yilga oshib bormoqda. Biz arab tili mutaxassislari oldida turgan eng dolzarb masala bu o‘ziizning milliy urf-odatlarimiz va an‘analarimizga mos bo‘lgna mavzularni qamrab olgan o‘quv materiallarini yaratishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. S. Mashrufiy, S. Xavaliy, A.U. Mahmud “At-Takallum: A Comprehensive Modern Arabic Course”. Burj books. Egypt, 2019.
2. S. Fatxiy. “Al-Minxaju Al-Alamiyyu”. Dar al-Siynabil. 2020.
3. Marisol Valldeperez Castillo. Oral discourse in foreign language education. The speaking activities in EFL textbooks and the CEFR. Universitet of Barcelona. 2016.
4. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment. Modern languages division. Strasbourg. 2001.
5. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment: Structured overview of all CEFR scales.
9. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.
10. Тухтасинов, И., &Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. Society and Innovation, 2(2), 111-117.

11. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
12. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
13. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
14. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
15. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
16. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.
17. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
18. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
19. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
20. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
21. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
22. Tuhtasinov, I. M. and Lutfilloeva, F. (2019). The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
23. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан.

- Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
24. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
25. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
26. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
27. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
28. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
29. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
30. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
31. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
32. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
33. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
34. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
35. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
36. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.

-
37. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
38. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.